

O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING RIVOJLANISHI

Tajimuratova Shaxnoza Saġinbaevna

Berdaq nomidagi QDU o'qtuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16687885>

Annotatsiya. O'zbekistonda madaniyat va san'at boshqaruvining rivojlanishi, boshqaruv maqsadi va unga qo'yiladigan asosiy talablari, maqsadi turlari, boshqarish funksiyalari mazmuni va mohiyati haqida s'z etilgan.

Kalit s'zlar: Madaniyat, ma'naviyat, boshqaruv, boshqaruv funksiyalari, Madaniyat vazirligi, madaniyat boshqarmasi, madaniyat bo'limi, "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari.

THE DEVELOPMENT OF CULTURAL AND ARTISTIC MANAGEMENT IN UZBEKISTAN

Annotation. The development of cultural and artistic management in Uzbekistan, the purpose of management and the main requirements for it, types of goals, the content and essence of management functions are discussed.

Keywords: Culture, spirituality, management, management functions, Ministry of Culture, Department of Culture, Department of Culture, "Istiqlol" and "Turkiston" Palaces of Arts.

РАЗВИТИЕ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Рассматривается развитие менеджмента в сфере культуры и искусства в Узбекистане, цель менеджмента и основные требования к нему, виды целей, содержание и сущность функций управления.

Ключевые слова: Культура, духовность, менеджмент, функции управления, Министерство культуры, Департамент культуры, Дворцы искусств «Истикллол» и «Туркистон».

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti.

Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov rahbarligida Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha Komissiya tuzildi. Komissiyaga bir oy muddatda Madaniyat va sport ishlari vazirligini qayta tashkil etish bo'yicha barcha masalalarni hal etish, Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining markaziy apparatiga malakali mutaxassislarni har tomonlama saralash va kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlash topshirig'i berilgan.

Ta'kidlash joizki, farmonga binoan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etilgan. Ushbu muassasa o'zida 2,5 ming ijodiy jamoa va ijrochilarni birlashtiradi hamda musiqa, xoreografiya va estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish, O'zbekiston xalqining ma'naviyati, yorqin va o'ziga xos madaniyatini yorituvchi yuksak badiiy va sifatli asarlar yaratishga har tomonlama ko'maklashish imkonini beradi.

Farmonga binoan "O'zbekkonsert" davlat muassasasi faoliyatini moliyalashtirish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu jumladan, ularni jihozlash va ta'mirlash, madaniyat va san'at arboblarning xalqaro festivallar va konkurslarda ishtirok etishini ta'minlash, Madaniyat vazirligi muassasalari kadrlari malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish uchun byudjetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tuzish nazarda tutilgan.

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyoridan Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi, ularning o'z daromadlari bilan qoplanmaydigan qismidagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun respublika byudjetidan mablag' ajratilishi belgilandi.

Bolalar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan kuchaytirish, bolalar sporti obyektlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, sport ta'limi va sport zaxiralarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ijro apparati, sport yo'nalishi bo'yicha 256 sport maktabi va sport yo'nalishidagi maktab-internatlari Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoridan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi.

Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligiga boshqa tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda 2017-yilning 1-iyuliga qadar madaniyat xodimlariga ish haqini to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritish topshirig'i berildi.

Farmonni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarorlari qabul qilingan, ushbu qarorlarda ularning tashkiliy tuzilmalari, markaziy apparati tuzilmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi hududiy boshqarmalari tuzilmalari tasdiqlangan.

Madaniyat vazirligi tizimida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va nomoddiy merosni rivojlantirish, sohadagi ta'lim muassasalarini metodik ta'minlash, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tizimida esa sport va sport ta'limi muassasalarini ilmiy-metodik ta'minlash, sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalarni shakllantirish va tayyorlash bo'yicha yangi bo'linmalar va shtat birliklari nazarda tutilgan, ikki davlat boshqaruvi organi tuzilmasiga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar lavozimi kiritilgan.

Maqsad - bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Biz dastlab o'zimizning oldimizda turgan maqsadimizni aniqlab olamiz, so'ngra esa shu maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
 - faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini belgilaydi;
 - faoliyatimizni aniq soha, ishga yo'naltiradi;
 - u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
 - pirovard natijamizning baholash me'yorlarni belgilaydi va hk.
- Maqsadning ilmiy asoslanganligi va to'g'ri belgilanganligi boshqaruv uchun juda muhimdir.

Chunki aynan shu maqsadga binoan:

- boshqarish funksiyalari;
- boshqarish usullari;
- boshqarishning tuzilmaviy tarkibi;
- lavozimlarni belgilash va kadrlarni tanlash kabi muhim masalalar hal etiladi.

Boshqaruv maqsadiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Maqsad bir ma'noli va aniq bo'lishi kerak.

Agar qayoqqa borishni bilmasangiz, u holda biror yo'lni tanlashga ham hojat qolmaydi.

1. Maqsad real va bajarilishi mumkin bo'lishi kerak

- qaysi tomonga suzishni aniq maqsad qilib olmagan yelkanli qayiqqa hyech qanday shamol ham hamrox bo'la olmaydi.

1. Maqsad miqdoran o'lchovga ega bo'lishi kerak.

Miqdoran o'lchovga, me'yorga ega bo'lmagan maqsad- bu sarob

1. Maqsad barcha bajaruvchilarga tushunarli bo'lmog'i darkor

1. Maqsad bo'limlar va ma'sullar bo'yicha detallashtirilgan bo'lishi kerak.

Maqsad, uni boshqarish prinsiplari, pirovard natijasi bajaruvchilarga tushunarli bo'lishi va ularga yozma ravishda sodda tilda yetkazilishi kerak.

1. Maqsad ko'p qirrali bo'lishi kerak.

Maqsad har bir faoliyat turi, har bir ma'sul shaxs bo'yicha mayda-chuydasigacha batafsil taqsimlab chiqilgan bo'lishi lozim. Bu – umumiy, bosh maqsadning xususiy va yakka maqsadlarga bo'linishini, "maqsadlar shajarasi" ni tuzishni talab qiladi.

Boshqaruv maqsadi turlari.

Boshqaruv maqsadlari juda ham xilma-xildir. Bu esa ularni muayyan tarzda turkumlashni taqozo etadi. Maqsadni turkumlash belgilari:

1. Umumjamiyat miqyosidagii munosabatlarni aks ettirishga qarab;
2. Boshqaruv pog'onalar (darajalari) ga qarab;

3. Amalga oshirish muddatiga qarab ;
4. Boshqaruvning amalga oshirilishiga qarab;
5. Kutiladigan natijalarga qarab;
6. Murakkablik darajasiga qarab;

Maqsadlar:

1) siyosiy maqsadlar, iqtisodiy maqsadlar, sotsial maqsadlar, ma'rifiy-ma'naviy maqsadlar, xalqaro munosabatlar sohasidagi maqsadlar va boshq.

1) Xududiy boshqarish maqsadlari:

- mamalakat maqsadlari
- viloyat maqsadlari
- tuman maqsadlari
- qishloq maqsadlari
- ishlab chiqarish maqsadlari
- xalq xo'jaligi maqsadlari
- tarmoq (sektor) maqsadlari
- korxona (firma) maqsadlari
- yakka shaxs maqsadi

1) joriy maqsadlar

1) istiqboldagi (perspektiv) maqsadlari

- uzluksiz (kundalik) maqsadlari
- fursatli maqsadlar
- bir martalik maqsadlari

1) pirovard maqsadlar

- oraliq maqsadlari

1) oddiy, an'anaviy maqsadlari

- muammoli maqsadlari
- innovatsion maqsadlari

Mazkur turkumlanishdan ko'rinib turibdiki, maqsadlar o'zaro bog'liq bo'lib, muayyan ierarxiyaga, ya'ni yuqori va quyi maqsadlarga bo'linishi, bir maqsad boshqa bir maqsadga bo'ysunishi mumkin.

Joriy maqsadlar deganda bir yil ichida, yil choragi, bir oy va undan ham kamroq muddat mobaynida amalga oshiriladigan maqsadlar tushuniladi. Masalan. Korxona bo'limlari oldida bir yil mobaynida amalga oshirilishi mo'ljallangan quyidagi funksiyasional joriy maqsadlar qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Maqsadlarni belgilashda **joriy maqsadlar** nuqtai nazaridan yondoshuv, ya'ni har bir bo'linma maqsadlari, ularni bajarish muddatlari, aniq ijrochilar, aniq maqsadli tadbirlar resurslar manbalar, belgilangan tadbirlar bajarilishining asoslab berilishi barcha bo'g'inlar va darajalarda boshqaruv ishonchligini oshirish kafolatini beradi. Butun boshqaruv apparati harakatlarining puxta bo'lishini belgilaydi.

Istiqbolli (perspektiv) maqsadlar deganda besh yil yoki undan ko'proq davr mobaynida amalga oshiriladigan maqsadlar tushuniladi.

Masalan, respublikamizda ishlab chiqilgan “Kadrlarni tayyorlash Milliy dasturi”ni ruyobga chiqarishdek ulug‘vor maqsad quyidagi uch bosqichdagi muddatni o‘z ichiga oladi:

1997-2001 – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatdan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

2001-2005- milliy dasturni to‘liq ruyobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

2005 va undan keyingi yillar- to‘plangan tajribani tahlil qilish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ko‘rinib turibdiki, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo‘lyapti. Zero: **funksiyalar faoliyat turlarining, sub'ektining boshqarish ob'ektiga aniq ta'sir qilish yo‘nalishlarini aks ettiradi.**

Boshqaruv funksiyalaridan tashqarida boshqaruv jarayonining o‘zi ham bo‘lishi mumkin emas. Funksiyalar tarkibini, ularning ko‘lamini va mazmunini aniqlash boshqaruvchi xodimlar sonini belgilash, boshqaruv apparatining tashkiliy tarkibini loyihalash uchun muhim asos bo‘lib hisoblanadi.

Boshqarish funksiyalari – ko‘p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo‘yicha turkumlarga ajratib o‘rganish zaruriyati tug‘iladi. Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, tasnifi va mazmunini o‘rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun zarurdir, chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov M. Tashkilot madaniyati va rahbar ma’naviyati. – Toshkent., 2001
2. Yo‘ldashev N, Qozoqov O. Menejment. Darslik. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Кабушкин Н.М. Основы менеджмента: учеб. пособие. – Москва., 2009.
4. Ravshanov F. Rahbar va rahbarshunoslik. T.: «Akademiya», 2009.
5. Тульчинский Г.Л. Менеджмент в сфере культуры. – С.-Петербург. Гос – СПб.: Лан, 2001.
6. Тульчинский Г.Л., Шекова Й.Л. Менеджмент в сфере культуры. – СПб., 2007.